

**2024-yil II-chorak yakuni bilan tuman mahalliy budgetining ijrosi to‘g‘risida tuman
Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Sharipovning**

H I S O B O T I

Assalomu alaykum hurmatli Baxodir Qodirovich!

Hurmatli deputatlar va Sessiya qatnashchilar

Tumanda mahalliy budgetning 2024-yil II-chorak daromadlar tushumi prognozi 31 642,4 mln so‘mni tashkil etib, hisobot davrida 33 018,1 mln so‘mga bajarildi yoki belgilangan rejaga nisbatan 104,3 foizga bajarilib, daromadlar rejası 1 375,7 mln so‘mga orttirib bajarildi.

Tuman mahalliy budgetining II-chorak daromadlar rejası umumiylar tarzda oshirib bajarilgan bo‘lsada, manbaalarning 4 turi bo‘yicha tushumlar rejası ta’minlanmadı.

Jumladan, soliq turlari bo‘yicha quyidagicha:

Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i bo‘yicha reja 7 411,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 6 147,7 mln.so‘mga bajarilib 83,0 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 1 263,2 mln so‘mga bajarilmadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha reja 8 722,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 8 050,4 mln.so‘mga bajarilib 92,3 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 671,5 mln so‘mga bajarilmadi.

Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i reja 2 726,4 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 2 011,9 mln.so‘mga bajarilib 73,8 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 714,4 mln so‘mga bajarilmadi.

mol-mulkiga solinadigan solig‘i 4 138,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 3 526,6 mln.so‘mga bajarilib 85,2 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 611,4 mln so‘mga bajarilmadi.

Tuman mahalliy budgetining 2024-yil I chorak xarajatlari 57 866,9 mln so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, o‘tgan davrda 54 030,5 mln so‘m xarajatlar amalga oshirilib belgilangan reja nisbatan 93,4 foizga bajarildi.

Tuman mahalliy budgetidan 1-darajali xarajatlar, jumladan, ish haqlari va unga tenglashtirilgan to‘lovlari, ijtimoiy nafaqalar, ish haqiga nisbatan pensiya fondiga ajratmalar va kommunal xizmatlar xarajatlariga to‘liq va o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlangan.

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil yarim yillik xarajatlari rejası 118 mlrd. 582,5 mln. so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, yil davomida 110 mlrd. 726,1 mln. so‘m kassa xarajati amalga oshirilib, 93,3 foizni tashkil qildi. Jumladan:

Ijtimoiy sohani moliyalashtirish uchun 59 mlrd. 475,6 mln.so‘m moliyalashtirilishi rejalashtiriligan bo‘lib, 58 mlrd. 019,1 mln.so‘mga kassa xarajati amalga oshirildi.

Tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari va zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan joriy yil yarim yillikda 1 mlrd. 434,4 mln.so'm mablag'lar. Jumladan

- Inson ijtimoiy xizmatlar markazini ta'mirlash xarajatlari uchun 143,0 mln.so'm.

- Tumandagi ijtimoiy ximoyaga muxtoj kam ta'minlangan oilalarga uy joylarini ta'mirlash uchun shefer va moddiy yordam ko'rsatish uchun 109,0 mln.so'm

- Tuman axolisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida suv quvurlari xarid qilish uchun 81,0 mln.so'm

- Tumandagi sektorlar ish faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida kompyuter texnikalari va idora ashyolari xarid qilish uchun 151,0 mln.so'm.

- Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik shiori ostida o'tkazilgan yoshlar festivali va boshqa omvaviy tadbirlar uchun 252,0 mln.so'm mablag'lar yo'naltirildi

Tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 1 yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 5 mlrd. 052,5 mln.so'm mablag'lar. Jumladan

- Saxovat va ko'mak jamg'armasi uchun 100,0 mln.so'm

- Ayollar daftari jamg'armasi uchun 100,0 mln.so'm

- Yoshlar daftari jamg'armasi uchun 100,0 mln.so'm

-Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi uchun 1 mlrd.170,0 mln.so'm

-Obod xonardon obod ko'cha obod mahalla tamoili asosida tumanda obodonlashtirilayotgan Tepaqishloq MFY uchun 830,0 mln.so'm

-Tuman Mudofaa ishlari bo'limi binosini ta'mirlash xarajatlari uchun 150,0 mln.so'm

- Mustaqillik maydani o'rniiga hokimlik bog'i va yashil jamoat parkini tashkil etish xarajatlari uchun 80,0 mln.so'm

-Tumandagi ijtimoiy ximoyaga muxtoj kam ta'minlangan fuqarolarning turli kasalliklari bo'yicha davolanish xarajatlari uchun 32,0 mln.so'm mablag'lar yo'naltirildi.

**Toyloq tuman iqtisodiyot
va moliya bo'limi boshlig'I**

A.Sharipov